

Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini statistik tahlil qilishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlari indeksi

Davlatbek Xursanbekovich Iskandarov

idavlatbek15@gmail.com

Toshkent Moliya instituti Andijon fakulteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini iqtisodiy indekslar usulida tadqiq etishning nazariy asoslari keltirilgan. Horijiy tajribalar asosida O'zbekistonda qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini iqtisodiy indekslar usulida tadqiq etish uchun Ukrayina tajribasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, dastlabki natijalar, hududlar, xo'jalik toifalari, metodologiya, milliy qishloq xo'jaligi statistikasi, tendensiyalar, statistik tahlil, iqtisodiy indeks, mehnat resurslari, bozor narxlari, ma'lumotlar ko'lami, fermer va dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi kuzatuvlari

Price index of agricultural products in the statistical analysis of agricultural enterprises

Davlatbek Khursanbekovich Iskandarov

idavlatbek15@gmail.com

Andijan Faculty of Tashkent Financial Institute

Abstract: Theoretical foundations of growing according to the method of indicators of economic development in this message. On the basis of foreign experience, Ukrainian production was created in Uzbekistan to study the method of economic development of the economy.

Keywords: agriculture, forestry and fisheries, preliminary results, regions, categories of holdings, methodology, national agricultural statistics, trends, statistical analysis, labor resources, market prices, lama data, farms and peasant farms, agricultural observations

KIRISH

Qishloq xo'jaligi tarmog'i Respublikamizning milliy mahsulot ishlab chiqarish sohasidagi asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanib, o'zining qo'shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o'rni va yuqori darajaga ega bo'lgan ishlab chiqarish bilan boshqa yo'nalish va tarmoqlardan afzalligi bilan keskin farq qiladi. Mazkur tarmoq yuqori salohiyatga ega bo'lib, unda ehtiyojlarni qondirish uchun

zarur mahsulotlarni ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi korxonalarida samaradorlikni oshirish va aholi turmush darajasini yaxshilash uchun ulkan imkoniyatlar mavjud.

Qishloq xo'jaligi har qanday mamlakat milliy iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismidir. U qishloq xo'jaligiga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligining milliy iqtisodiyotdagi asosiy o'rni oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qo'shimcha ish o'rinlari yaratishdan iboratdir.

Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi sektori aholining eng muhim daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Qishloq aholisining aksariyati qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi va uning natijalariga bog'liq. Bunday mamlakatlarda qishloq xo'jaligi rivojlanmagan bo'lsa, iqtisodiy taraqqiyotga erishib bo'lmaydi.

Qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari bu odamlarni oziq-ovqat va boshqa ehtiyojlar bilan ta'minlash uchun yetishtiriladigan ko'plab ekinlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida chorvachilik - go'sht, sut va tuxum ishlab chiqarishlar kiradi. Xususiyatlar orasida ushbu bozorda muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo'lgan tabiiy resurslar, mehnat va bilimlardan foydalanishni ham ta'kidlash mumkin. Qishloq xo'jaligi sohasi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – hosildorlik va mahsulot sifatini oshirish zarurati. Hozirgi davrda, bozorlar barqaror bo'lib qolsa ham, o'sib borayotgan aholi qo'shimcha resurslarni talab qiladi. Kelajakda iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslardan foydalanish nuqtai nazaridan bu yanada muammoli bo'lishi ham mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda boshqa sohalarda bo'lgani kabi, qishloq xo'jaligi sohasiga oid bir nechta qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi, shu bilan birga tarmoqqa oid dasturlar va "yo'l xarita"lari ishlab chiqilib, ular izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmonida [3] to'qqizta ustuvor yo'nalish belgilab berilgan bo'lib, shulardan biri tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son qaroriga muvofiq, 2020-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning Milliy strategiyasi tasdiqlandi¹.

Mazkur qarorda statistika ma'lumotlari sifatini yanada yaxshilash, statistika ko'rsatkichlarining to'laqonli ma'lumot bazalarini yaratish, ularni xalqaro

¹ <https://lex.uz/docs/-4926736>

standartlarga moslashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sohalarda statistikaning zamonaviy usullarini joriy etish nazarda tutilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning ilmiy-nazariy asosi sifatida iqtisodiy adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligini rivojlantirish, ulardan samarali foydalanish bo'yicha izlanishlari, ularning yozma va og'zaki fikr mulohazalarini tahlil qilish, iqtisodiy jarayonlarni kuzatish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida iqtisodiy indekslar usuli yoritib berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi statistikasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan korxonalar va tashkilotlarning statistik hisobotlari, Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari, qishloq xo'jaligi va fermer xo'jaliklari kuzatuvlari asosida ishlab chiqariladi.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning muhim sektori bo'lgani bois ishonchli va keng qamrovli milliy qishloq xo'jaligi statistikasiga ehtiyoj katta.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tashkiloti bilan mamlakatning oziq-ovqat balansini tayyorlashda yaqindan hamkorlik qiladi, ammo ular e'lon qiladigan statistika ma'lumotlari har doim ham bir xil emas, bu esa qishloq xo'jaligi statistikasining ishonchliligini pasaytiradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish umuman o'tkazilmaganligi sababli statistika ma'lumotlarining ishonchliligi shubha ostiga olinadi².

Ushbu yo'nalishdagi maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- ishonchli va keng qamrovli milliy qishloq xo'jaligi statistikasi tizimini ishlab chiqish;
- qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat statistikasi ishonchliligi va mavjudligini oshirish;
- qishloq xo'jaligida tendensiyalar va bozor narxlari bo'yicha statistik ma'lumotlarning mavjudligini oshirish;
- fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyati unumdorligi bo'yicha statistik ma'lumotlar ko'lamini oshirish;
- qishloq xo'jaligi kuzatuvining tashkiliy va metodologik asoslarini ishlab chiqish;
- horij tajribalari asosida qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatini iqtisodiy indekslar usulida statistik baholashni usullarini ishlab chiqish ;

² O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI TARMOG'INING RIVOJLANISH HOLATI VA UNING TENDENTSIYALARIDAGI O'ZGARISHLARNI STATISTIK BAHOLASH Berdiqulov Qobil G'ulomovich

O'zbekistonda yetishtiriladigan asosiy ekinlar paxta, meva, sabzavot, boshqali va dukkakli ekinlardir. Paxta muhim eksport mahsuloti bo'lib, mamlakat iqtisodiyotiga katta daromad keltiradi. Shuningdek, keyingi yillarda yaxshi eksport imkoniyatlariga ega bo'lgan anor va uzum yetishtirish ham ommalashmoqda. O'zbekiston qishloq xo'jaligining yana bir xususiyati ko'p sonli mehnat resurslaridan foydalanishdir. Qishloq xo'jaligida mamlakat ishchi kuchining 28% dan ortig'i ishlaydi. Biroq, shunga qaramay, aksariyat qishloq xo'jaligi korxonalarida zamonaviy texnika va uskunalar yetarli emasligi hosilni yig'ishtirib olish jarayonini murakkablashtirib, tannarxini oshirmoqda.

Qishloq xo'jaligini iqtisodiy rivojlantirishning asosiy usullaridan biri qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, jumladan, qishloq xo'jaligini rivojlantirishning turli dasturlarini qo'llab-quvvatlash va subsidiyalash yo'li bilan tashkil etishdan iborat. Bundan tashqari, qishloqlarda infratuzilmani yaxshilash va ta'lim sifatini oshirish muhim usul hisoblanadi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli rejalashtirish va amalga oshirish uchun ushbu tarmoqdagi iqtisodiy indekslarning statistik tadqiqotlarini o'tkazish zarur. Tahlilning asosiy mezonlaridan biri iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasidir. Barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarni asosiy va qo'shimchaga bo'lish mumkin.

Asosiy iqtisodiy indekslarga ishlab chiqarish hajmi, mahsulotning umumiy tannarxi, sof qo'shilgan qiymat, rentabellik va boshqalar kiradi. Qo'shimcha ko'rsatkichlarga bandlik darajasi, yerning o'rtacha hosildorligi, hosildorlik darajasi va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy indekslar dinamikasini statistik o'rganish mahalliy va jahon bozorlarida qishloq xo'jaligining rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Statistik ma'lumotlar real iqtisodiy ko'rsatkichlarning rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga muvofiqligini aniqlash, shuningdek, ularning vaqt o'tishi bilan o'zgarishini kuzatish imkonini beradi. Iqtisodiy indekslar dinamikasini o'rganish qishloq xo'jaligi korxonalarida duch kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqishga ham imkon beradi. Masalan, agar statistik ma'lumotlar ishlab chiqarish darajasi pasayib borayotganini ko'rsatsa, bu qishloq xo'jaligida yangi texnologiyalarni joriy etish va ishchilarni tayyorlash sifatini oshirish zarurligini anglatishi mumkin.

Iqtisodiy indekslar dinamikasini statistik o'rganishning nazariy asoslari statistik tahlil, matematik modellar va vaqt qatorlari tahlili kabi iqtisodiy hodisalarni o'rganish usullariga asoslanadi. Ular iqtisodiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish, shuningdek, iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishini bashorat qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, iqtisodiy indekslar dinamikasini statistik o'rganish qishloq xo'jaligini rivojlantirish dasturlarini rejalashtirish va amalga oshirishning muhim

tarkibiy qismidir. Ular ushbu sohadagi muammolarni tahlil qilish va aniqlash, shuningdek, uning rivojlanishi va barqarorligiga hissa qo'shadigan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Oldimizda turgan muammolardan biri qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy faoliyatini indeksar usulida statistik tahlil qilishdir. Ushbu usul horijiy davlatlar qishloq xo'jaligida qanday amalga oshirilishini ko'rib chiqishimiz va bizning milliy iqtisodiyotdagi qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatini statistik tahlil qilishga to'g'ri qo'llashimiz dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbularni hisobga olgan holda Ukrayina qishloq xo'jaligi mahsulotlari indeksini o'rganib chiqamiz.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlari indeksi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy turlari bo'yicha o'rtacha narxlarning o'zgarishini, uni amalga oshirishning barcha yo'nalishlarini hisobga olgan holda hisobga olinadigan o'rtacha tortilgan qiymatdir.

2022 yil yanvar oyida Ukrainada qishloq xo'jaligi narxlari indeksi 106,1% ni tashkil etdi.

2013 yildan 2022 yilgacha bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish narxlari indekslarining umumiy jadvali (%)

	январь	февраль	март	апрель	май	июнь	июль	август	сентябрь	октябрь	ноябрь	декабрь	За год
2013	102,7	102,4	102,5	100,3	96,9	96,7	96,0	89,4	92,8	100,4	101,2	111,4	91,3
2014	94,5	109,8	111,0	116,9	105,0	94,5	98,6	98,4	92,0	102,3	109,0	109,1	145,1
2015	118,5	117,8	115,0	99,5	96,4	100,0	97,3	97,4	92,8	102,6	115,9	103,1	166,0
2016	98,9	106,0	100,1	102,7	101,6	97,1	101,6	94,2	96,5	103,3	102,2	103,8	107,6
2017	102,2	103,2	101,6	102,3	98,0	99,7	100,0	96,1	99,5	103,8	102,2	102,9	111,8
2018	102,1	101,4	103,5	103,6	97,9	96,2	98,6	99,1	100,6	99,5	100,6	101,5	104,4
2019	101,5	100,6	97,8	100,5	97,1	97,6	100,1	94,7	92,5	101,5	100,8	101,5	86,6
2020	102,7	105,5	102,3	113,0	95,8	101,2	97,5	98,6	107,0	106,3	108,9	106,2	153,6
2021	110,2	104,0	107,5	98,5	99,5	94,9	95,8	97,8	98,5	101,6	104,4	104,0	116,7
2022	106,1												106,1

- indeks qiymatlari oldingi oyga nisbatan foiz sifatida berilgan

- 2023 yil may oyidagi ma'lumotlar Держкомстат tomonidan hali e'lon qilinmagan

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish narxlari indeksi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalariga, bozorga, aholiga ish haqi hisobiga, aksiyadorlarga yer va mulk ulushlari uchun ijara haqi hisobiga, fond birjalarida sotishni hisobga oladi. Ushbu o'zgarishlarni jamlash uchun tortish bazasi hisobot davridagi tegishli turdagi mahsulotlarni real sotish hajmi hisoblanadi.

Shu jumladan

Yillar	Barcha qishloq xo'jaligi subyektlari			Shu jumladan					
				korxonalar			uy xo'jaliklari		
	qishloq xo'jaligi mahsulotlari	shundan		qishloq xo'jaligi mahsulotlari	shundan		qishloq xo'jaligi mahsulotlari	shundan	
		dehqonchilik	chorvachilik		dehqonchilik	chorvachilik		dehqonchilik	chorvachilik
2010	98,6	96,4	104,3	97,5	94,6	109,8	99,9	99,4	100,8
2011	120,2	128,7	99,8	128,3	134,9	104,5	110,4	119,2	96,6
2012	96,1	93,3	104,9	94,1	91,0	108,1	99,0	97,2	102,5
2013	113,6	117,1	103,9	120,5	123,6	108,6	104,3	106,4	100,3
2014	102,2	103,1	99,5	103,8	103,9	103,4	99,7	101,4	96,3
2015	95,2	94,8	96,4	94,8	94,5	96,5	95,8	95,5	96,3
2016	106,3	109,1	97,3	109,7	112,4	97,5	100,9	102,8	97,2
2017	97,8	97,1	100,2	97,0	96,2	101,0	99,3	99,1	99,6
2018	108,2	110,2	101,2	112,0	113,6	104,5	101,7	103,3	98,1
2019	101,4	101,8	100,2	102,7	102,5	103,8	99,1	100,2	96,7
2020	89,9	87,9	97,5	88,0	85,8	99,3	93,6	92,8	95,6
2021	116,4	122,6	95,4	122,3	127,8	98,0	105,6	111,4	92,4
2022 ²	75,0	72,0	88,0	72,0	68,5	91,8	81,4	80,6	83,6


(Ma'lumotlar Qrim Avtonom Respublikasining vaqtincha bosib olingan hududi, Sevastopol shahri va Donetsk va Lugansk viloyatlaridagi vaqtincha ishg'ol qilingan hududlarning bir qismini o'z ichiga olmaydi.)

2022 yilda barcha toifalar bo'yicha qishloq xo'jaligi sotish narxlarini indeksi (%)

2022	Yanvar holatiga	Bir yilda
Jami	106,1	106,1
Dehqonchilik	107,1	107,1
Chorvachilik	100,0	100,0

- indeks qiymatlari oldingi oyga nisbatan foiz sifatida berilgan

Bundan tashqari, biz so'nggi yillarda Ukrainada inflyatsiya indekslari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarining o'zgarishi dinamikasi bilan global jadvalni keltirib o'tamiz (kumulyativ):



Ko'rib turganimizdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yakuniy baho indeksi mavsumiy tebranishlarga qaramay, inflyatsiya indeksi bilan hamqadam bo'lib, hatto undan o'zib ketganini ko'rishimiz mumkin. Qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatini

statistik baholashda indekslar usuli real baholash va aniq hisob kitoblarda namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohot natijalari tezkor, aniq va haqqoniy statistik raqamlarda o'z ifodasini topadi. Statistik raqamlarning haqqoniy va shaffof bo'lishi hukumat tomonidan qishloq xo'jaligini isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni manzilli ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning muhim sektori bo'lgani bois ishonchli va keng qamrovli milliy qishloq xo'jaligi statistikasiga ehtiyoj katta.

Shundan kelib chiqib, agrar sohada amalga oshirilayotgan islohot natijalarini statistik hisobini takomillashtirish yuzasidan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- milliy qishloq xo'jaligi statistikasi tizimini ishonchli va keng qamrovli bo'lishini ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi kuzatuvlarining tashkiliy va metodologik asoslarini yanada takomillashtirish;
- qishloq xo'jaligida kuzatilayotgan tendensiyalarni doimiy tahlil qilib borish;
- qishloq xo'jaligining tarkibiy holatini baholash, sohani xalqaro tajribalarda foydalaniladigan statistik ma'lumotlar bilan taqqoslash imkoniyatini yaratish, qishloq xo'jaligi sohasida tanlanma kuzatuvlarni amalga oshirish uchun statistik ma'lumotlar bazasini yaratish maqsadida qishloq xo'jaligi sohasida yalpi ro'yxatga olishni o'tkazish;
- ro'yxatga olish natijalarining to'liqligini ta'minlash, ularni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish uchun zarur infratuzilmani yaratish va yangi texnologiyalarni joriy qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni// Xalq so'zi, 29.01.2022-yil. TARMOQLAR VA SOHALAR

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi// Xalq so'zi, 20.12.2022-yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son farmoni// Xalq so'zi, 24.10.2019-yil.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son qarori// Xalq so'zi, 04.08.2020-yil.

5. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni. 2021-yil 11-avgust // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2021-yil, №8. <https://lex.uz>

6. Маркова А.И., Афанасев В.Н. Статистика сельского хозяйства: Учеб. пособие. – М.: Финансы и статистика, 2003 й. 272 с.

7. Афанасев В.Н. Многомерный статистический анализ факторов уровней и устойчивости урожайности сельскохозяйственных культур. – СПб.: Изд-во СПбАУ, 1995.

8. Berdiqulov Qobil G'ulomovich. O'zbekiston respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining rivojlanish holati va uning tendentsiyalaridagi o'zgarishlarni statistik baholash (maqola)

8. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz>

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz>

10. Ukrayina statistika web sayti: <https://ukrstat.gov.ua/>